

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY USLUBLAR

D.Ganiyeva, filologiya fanlari doktori,

N.Aripova FarDU magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqola horijiy tillarni raqamli texnologiyalar davrida yangi so'zlarni xotirada oson saqlab qolish usullariga oid nazariy bilim va amaliy malakalarni til o'rganuvchilarga turli xildagi texnologik resurslar orqali samarali o'rgatish va o'quvchilar ongida til bilish va o'rganishni takomillashtirishga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar tufayli horijiy tillarni o'rganish oldingi davrlarga qaraganda ancha qiziq va qisqa vaqt talab etayotganligining yaqqol isboti ekanligi bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** ommalashtirish, samarali, axborot, kommunikatsiya, ilg'or, ko'nikma, kasb, teleradiokanal, qo'shiq, texnologiya, internet, omil.*

***Аннотация:** Целью данной статьи является эффективное обучение изучающих иностранный язык теоретическим знаниям и практическим навыкам того, как легко запоминать новые слова в эпоху цифровых технологий с помощью различных технологических ресурсов, а также улучшение языковых знаний и обучения в сознании студентов. Это наглядное доказательство того, что благодаря цифровым технологиям изучение иностранных языков стало гораздо интереснее и требует меньше времени, чем в прежние времена.*

***Ключевые слова:** популяризация, эффективный, информация, коммуникация, продвинутый, мастерство, профессия, радиоканал, песня, технология, интернет, фактор.*

***Annotation:** This article aims to effectively teach foreign language learners theoretical knowledge and practical skills of how to easily memorize new words in the era of digital technologies through various technological resources and improve language knowledge and learning in the minds of students. It is a clear proof that due to digital technologies, learning foreign languages is much more interesting and requires less time than in previous times.*

Key words: popularization, effective, information, communication, advanced, skill, profession, radio channel, song, technology, internet, factor

Prezidentimizning xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida “ O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori zamonaviy raqamli texnologiyalar, pedagogika va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish orqali chet tillarini o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Tilga o'rgatishning ilg'or uslublari o'rganuvchi talaffuzining burro qilishga, matnlarni bemalol o'qib tarjima qila olish hamda mazmunini chuqur tushuna olish ko'nikmalarini, chet tilida so'zlashish madaniyati va nutq odobini shakllantirishga qaratilgan zarur nazariy bilim va malakalarni berishga yo'naltirilishi zarur.

Xorijiy tillarni o'rganishda yangi so'zlarni xotirada oson saqlab qolish usullariga oid nazariy bilim va amaliy malakalar yangi o'rganuvchilar uchun dolzarbdir.

Til o'rganish amaliyotining eng oddiy usullaridan biri raqamli texnologiyalardan foydalanib so'zni individual o'rganuvchi tajribasiga asoslanib, matn ichidagi so'zlar bilan bog'lagan holda yodlash va uni amalda qo'llashni uddalash bo'lib, bu usul so'zlarni xotirada tez yodlash va uzoq vaqt saqlab qolishni osonlashtiradi.

Kembridj universitetining “English Vocabulary in use. Advanced” kitobining muallifining fikricha, til o'rganishda raqamli texnologiya vositalarini tavsiya qilgan uslubiyotlari ko'lamiga ko'ra qulay va eng ko'p tarqalgan uslubiyotlardan hisoblanadi. Ular;

- ingliz tilidagi vebsaytlarga a'zo bo'lish va muntazam kirib novellalar, turli xil xorijiy gazeta va jurnallarni o'qish;

- kasbingiz yoki ilmiy qiziqishlaringiz bilan bog'liq axborotlarni ingliz tilida o'qish;

- inglizcha kino yoki videolarni tomosha qilish;

- inglizcha teleraadiokanallarni ko'rish;

- inglizcha qo'shiqlarni tinglash;

- audio kitoblardagi inglizcga suhbat, bahs, munozara, takliflar, hodisalarni tinglash orqali nafaqat so'z boylik oshadi, balki, tinklash, gapirish, tushunish mahoratlari takomillashadi. [English vocabulary in use]

Ikkinchi xildagi uslubiyot – ingliz tilidagi raqamli texnologiyalardagi onlayn lug'atlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi hamda so'z boyligining kengayishiga ijobiy ta'sir qiladi. [“Til o'rganish kaliti" Fotima Abdulaminova 37 bet 2:]

Cambridge, Oxford, Harvard va boshqa ko'plab dunyoning yirik universitetlarining online lug'atlarining ba'zi bir nashrlari internetga joylashtiriladi. Ushbu lug'atlar raqamli texnologiyalar rivoji tufayli nashr qilingan kitoblarga qaraganda tez va osonlik bilan so'zni, uning ma'nosini topish uchun qulayroqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yangi so'zlarni tez o'zlashtirish, o'qib tushunish, tinglash, gapirish ko'nimalarining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardagi zamonaviy uslublar xorijiy tillarni o'qitishda asosiy va muhim omil sifatida xizmat qilayotganligi e'tiborga loyiq.

1. Foydalangan adabiyotlar va web saytlar:

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b.
3. Abduraxmonova Sh.A. “O'zaroalmashuvchanlik, standartlashtirish, texnik o'lchovlar” fanining elektron majmuasi dasturi O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi № DGU 09073 07.09.2020 y.
4. Maykl Makkartni “English vocabulary in use” Kembridj, Buyuk Britaniya

5. Fotima Abdulaminova “Til o‘rganish kaliti” Toshkent 2019-18b.
6. www.lex.uz–O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.